



# Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

---

## BARQAROR XARIDLAR SIYOSATI

Toshkent-2024

## **Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining Barqaror xaridlar siyosati**

### **I. Umumiy qoidalar**

Barqaror xaridlar siyosatning asosiy maqsadi – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti (*keyingi o'rinlarda – Universitet / JIDU*) tovarlar, ishlar va xizmatlar bilan ta'minlashning samarali tizimini yaratishdan iborat. Xaridlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq barqarorlik, shaffoflik va adolat tamoyillari asosida amalga oshiriladi. Universitetning barqaror xaridlar siyosati atrof-muhitga ta'sirni kamaytirishga, etika tamoyillariga asoslangan ta'minot zanjirlarini qo'llab-quvvatlashga, resurslarni samarali boshqarishga va mas'uliyatli avlodni tarbiyalashga qaratilgan. Barqaror rivojlanish tamoyillariga mos keladigan, zararli moddalarning minimal miqdoriga ega va uglerod miqdori kamaytirilgan tovarlar va xizmatlarga ustunlik beriladi. JIDU xalqaro tajribaga asoslanib, aylanma iqtisodiyot va resurslardan oqilona foydalanish tamoyillarini qo'llab-quvvatlaydi.

### **II. Qo'llanilish sohasi**

Mazkur siyosat barcha bo'linmalarga, professor-o'qituvchilarga, xodimlarga va tovarlar va xizmatlarni xarid qilishda ishtirok etuvchi ta'minotchilarga, shu jumladan, kantselyariya buyumlari, IT-uskunalar, mebellar, qurilish materiallari, umumiy ovqatlanish xizmatlari va universitetning boshqa operatsion ehtiyojlariga nisbatan qo'llaniladi.

### **III. Barqaror xaridlarning asosiy tamoyillari**

**1. Barqaror rivojlanish tamoyillarini integratsiya qilish.** Xaridlarni amalga oshirishda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik tarkibiy qismlar o'rtasida muvozanat ta'minlanadi. Xaridlar to'g'risida qaror qabul qilishda barqarorlikning aniq mezonlarini belgilash, milliy va xalqaro barqaror rivojlanish standartlariga mos keladigan tovarlar va xizmatlarga ustunlik beriladi.

**2. Qonuniylik va shaffoflik.** Xaridlarni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga qat'iy muvofiq holda amalga oshiriladi. Ochiq, raqobatbardosh va shaffof xarid faoliyati ta'minlanadi. Qonuniylik, ekologik tozalik, halollik va axborot ochiqligi tamoyillariga mos keladigan ta'minotchilar tanlanadi.

**3. Ekologik barqarorlik.** Atrof-muhitga minimal darajadagi ta'sirga ega, energiya samaradorligi talablariga javob beradigan va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanadigan tovarlar va xizmatlarni sotib oladi. Universitet aylanma iqtisodiyot tamoyillarini qo'llab-quvvatlaydi, qayta ishlangan va qayta ishlanadigan tovarlarni sotib olishga, chiqindilarni kamaytirishga va qog'ozsiz texnologiyalarni joriy etishga intiladi. Energiya tejaydigan, suvni tejaydigan, qayta ishlanadigan, kompostlanadigan yoki qayta tiklanadigan resurslardan tayyorlangan mahsulotlar va xizmatlarga ustunlik beriladi. Bir martalik plastmassa va qadoqlashdan foydalanishni kamaytirish, ulgurji xaridlarni, biologik parchalanadigan alternativlarni yoki ko'p marta ishlatiladigan mahsulotlar tanlanadi. Ekologik sertifikatlariga ega mahsulotlar sotib olinadi. Ta'minotchilarni uglerod chiqindilari kam bo'lgan logistika, qayta tiklanadigan energiya manbalari va ekologik toza materiallardan foydalanishi rag'batlantiriladi.

**4. Ijtimoiy va axloqiy mas'uliyat.** Xavfsiz mehnat sharoitlari ta'minlanadi. Mehnat muhofazasi va ekologiya normalariga rioya qilinadi. Xarid faoliyatida ijtimoiy adolat qo'llab-quvvatlanadi. Halol raqobat tamoyillariga rioya qilgan holda mahalliy ta'minotchilarga, kichik va o'rta biznesga ustunlik beriladi. Kichik korxonalar, ayol tadbirkorlar va mahalliy ishlab chiqaruvchilar qo'llab-quvvatlanadi. Barcha toifadagi xodimlar, professor-o'qituvchilar va talabalarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda xarid rejalari shakllantiriladi. Xaridlarning qulayligi va inklyuzivligi inobatga olinadi, shu jumladan, cheklangan imkoniyatlarga ega talabalar va xodimlar uchun yordamchi texnologiyalar va materiallar sotib olinadi. Halollik va korruptsiyaga qarshi kurash tamoyillariga rioya qilinadi va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaydi.

**5. Oziq-ovqat mahsulotlarini barqaror xarid qilish.** Tovar tarkibidagi Uglerod miqdorini kamaytirish uchun mahalliy, organik va mavsumiy mahsulotlarga ustunlik beriladi.

**6. IT-uskunalar va texnologiyalarni xarid qilish.** Ta'mirlangan va modernizatsiya qilingan texnikani sotib olish orqali elektron chiqindilar hajmini kamaytirishga alohida e'tibor qilinadi.

#### **IV. Amalga oshirish, rioya etilishini nazorat qilish va hisobdorlik**

Universitet bo'linmalari tender hujjatlarida, ta'minotchilar bilan tuzilgan shartnomalarda va xarid buyurtmalarida barqaror rivojlanish tamoyillari hisobga olinadi.

Xarid faoliyatining ta'sirini baholash va takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash uchun har yili barqaror rivojlanish auditi o'tkaziladi.

Barqaror xaridlar bo'yicha ishlarning natijalari universitetning barqaror rivojlanish bo'yicha hisobotlarida aks ettiriladi.

Suiiste'molliklarning oldini olish cholari ko'raladi, universitetning o'z mablag'lari samarali sarflanishi nazorat qilinadi, xaridlar sohasidagi xalqaro tajriba hisobga olinadi.

Barqaror xaridlarni nazorat qilish va baholash tizimlari ishlab chiqiladi, ularning samaradorligi hisoboti berib boriladi va ularni tahlil qilish mexanizmlari joriy etiladi. Barqaror xaridlar sohasidagi natijalar va yutuqlar monitoring qilib va hujjatlashtirib boriladi.

Xaridlarda ishtirok etuvchi xodimlar uchun barqaror xaridlar va korruptsiyaga qarshi kurash choralari sohasida ularning malakasini oshirish maqsadida o'quv tadbirlari va seminarlar tashkil etiladi. Xodimlar barqaror xaridlar va ekologik xavfsiz amaliyotlar to'g'risida xabardor qilib boriladi va o'qitish dasturlari joriy etiladi.

## **V. Istisnolar**

Ushbu siyosatdan istisnolar barqaror alternativlar mavjud bo'lmagan, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lmagan yoki operatsion talablarga javob bermaydigan hollarda ruxsat etiladi. Asoslar hujjatlashtirilishi va buxgalteriya hisobi tomonidan tasdiqlanishi kerak.

## **VI. Ko'rib chiqish va takomillashtirish**

Ushbu siyosat barqaror rivojlanishning zamonaviy amaliyotlariga, texnologik o'zgarishlarga va yangi me'yoriy talablarga va yangi standartlarga (*Barqaror Rivojlanish Maqsadlari, Net Zero*) muvofiqligini ta'minlash maqsadida zaruratga qarab qayta ko'rib chiqiladi.